

**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS****O'zbekiston Konstitutsyasi: Tarixi, ahamiyati va zamonaviy
rivojlanishi.****G'aybullayev Asadbek Anvar o'g'li***Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**Yurisprudensiya fakulteti 1- bosqich talabasi*

O'zbekiston respublikasi konstitutsyasi mamlakatning huquqiy asoslarini belgilab beruvchi eng muhim huquqiy asoslarini belgilab beruvchi eng muhim huquqiy hujjat hisoblanadi. Ushbu hujjat 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lib, O'zbekiston mustaqillika erishgandan so'ng davlatning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Konstitutsya, xalqning irodasi va erkinligini ifofda etib, davlatning asosiy yo'nalishlarini va boshqaruv tizimini belgilaydi. O'zbekiston Konstitutsyasining noyobligi shundaki, u o'zgarishlarga juda ochiq, mamlakatning dinamik o'zgarishlarini hisobga olgan holda doimiy ravishda yangilanib boradi.

Konstitutsyaning tarixi

O'zbekiston konstitutsyasi tarixida bir necha muhim bosqichlar mavjud. Mustaqillikni qo'lga kiritgach, 1991- yilda yangi davlat qurish jarayonlari boshlandi. Mamlakat mustaqil davlat sifatida o'zining asosiy huquqiy hujjatini ishlab chiqishga kirishdi. Bu jarayonda mustaqil mamlakatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy tizimlarni mustahkamlash xalqning erkinligini, huquqlarini ta'minlash maqsadida ko'plab yig'ilishlar va muhokamalar o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi konstitutsyasining qabul qilinishi 1992-yil 8-dekabrda amalga oshdi. Bu hujjat O'zbekiston Respublikasining suverentetini tasdiqlab, xalqning davlatni boshqarishdagi yuksak huquqlarini ta'minladi. Shuningdek, konstitutsya davlatning demokratik, huquqiy va sotsial tuzilishini belgilab berdi.


O'zbekiston konstitutsyasining ahamiyati

O'zbekiston konstitutsyasi, davlatning barcha siyosiy tizimning asosini tashkil etadi.

Unda xalqning erkinligi, tengligi va adolatli boshqaruv tamoyillari o'z ifodasini topgan.

O'zbekiston konstitutsyasi asosan quyidagi prinsplaraga asoslanadi:

1. Davlatning suverentiteti – O'zbekistonning davlat suvereniteti tasdiqlanadi va mamlakat hududida yuqori hokimiyat xalqqa tegishli e'lon qilinadi.
2. Xalqning suveren huquqlari – O'zbekiston konstitutsyasi xalqni eng yuqori hokimiyat manbai sifatida tan oladi va shu bilan birga xalqning huquq va erkinliklarini ta'minlashni asosiy maqsad qilib belgilaydi.
3. Demokratik tuzilma – Konstitutsya davlatni demokratik yo'nalishda qurish, fuqarolarning tengligi va erkinligini ta'minlashga yo'naltirilgan.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Huquqiy davlat – O‘zbekiston respublikasida huquqiy davlat tamoyillari joriy e’tilgan bo’lib, unda barcha qonunlar faqat O‘zbekiston konstitusyasiga asoslangan holda ishlab chiqilishi kerak.

O‘zbekiston konstitutsyasining zammonaviy rivojlanishi

O‘zbekiston konstitutsyasi qabul qilinganidan keyin turli davrlar davomida bir necha bor yangilangan. 2003- yilda, 2014-yilda va oxirgi marta 2021- yilda konstitutsyaga o‘zgartirishlar kiritildi. Bu o‘zgarishlar davlatni yanada demokratlashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek, davlat boshqaruvi va sud tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan.

2021- yilda amalga oshirilgan o‘zgarishlar O‘zbekiston konstitutsyasining yanada demokratik va ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga hissa qo’shish va mamlakatda zamonaviy o‘zgarishlarga moslashishga imkon yaratadi. Xususan konstitutsyaga kiritilgan o‘zgarishlar prezidentning vakolatlarini cheklash, parlamentning roli va ta’sirini oshirish, fuqarolar huquqlarini yanada himoya qilishni nazorat qilishni nazarda tutadi.

Konstitutsyaning xalqaro ahamiyati

O‘zbekiston Respublikasi konstitutsyasi xalqaro huquqiy me’yorlarga mos tarzda ishlab chiqilgan bo’lib, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan e’tirof e’tilgan bir qator huquqiy hujjatlar, xususan:

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi,

Fuqarolik va siyosiy huquqlar to’g’risidagi xalqaro pakt,

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy huquqlar to’g’risidagi pakt,

Kabi xalqaro hujjatlardagi asosiy tamoyillarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, konstitusya normalarini doimiy takomillashtirib boradi.

Konstitutsiyani himoya qilish mexanizmlari

Konstitutsiyaning ustuvorligi davlat hokimiyatining barcha tarmoqlari uchun majburiy hisoblanadi. Konstitutsiyani buzishga urinish qonuniy javobgarlikka olib keladi. O‘zbekiston Konstitutsiyaviy Sudi esa:

Konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradi;

Qonunlar Konstitutsiyaga zid emasligini tekshiradi;

Fuqarolar, parlament a’zolari yoki Prezident murojaatlari asosida ish ko‘radi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
 - Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023-yilgi tahriri.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Konstitutsiyaviy nazorat to’g’risida”gi Qonuni
 - Toshkent, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи Qonunchilik palatasi rasmiy nashri, 2021.



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch
– Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2008.
4. X. X. Abdusalomov. Konstitutsiyaviy huquq: nazariya va amaliyot
– Toshkent: TDYuU nashriyoti, 2022.
5. R. M. G'aniyev. Davlat va huquq asoslari
– Toshkent: "Akademnashr", 2021.
6. Saidov A.X. Inson huquqlari: nazariya va amaliyot
– Toshkent: Adolat, 2019.
7. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati va Qonunchilik palatasi rasmiy saytlarida e'lon qilingan ma'ruzalar va hujjatlar:
 - www.senat.uz
 - www.parliament.gov.uz
8. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi (1948) va unga oid sharhlar.
 - www.un.org
9. Yevropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YXHT) hamda Venesiya komissiyasi tavsiyalari:
 - www.osce.org
 - www.venice.coe.int
10. A. Komilov, M. To'xtashev. Konstitutsiyaviy islohotlar va davlat tuzilmalarining takomillashuvi
– Toshkent: TDYuU Ilmiy ishlalmalar markazi, 2023.

